

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SULAYMONOVA SAODAT USUBXONOVNA

**INTERAKTIV VIZUAL TA'LIM VOSITALARI ORQALI
O'QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI (8-10 SINFLAR MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the doctor of science (DSc)

Sulaymonova Saodat Usubxonovna

Interaktiv vizual ta’lim vositalari orqali o‘quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi (8-10 sinflar misolida)..... 3

Сулаймонова Саодат Усубхоновна

Методика развития экологической культуры учащихся посредством интерактивных визуальных средств обучения (на примере 8-10 классов).... 29

Sulaymonova Saodat Usubkhonovna

Methodology for developing students' ecological culture through interactive visual educational tools (based on examples from grades 8-10)..... 61

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications 66

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SULAYMONOVA SAODAT USUBXONOVNA

**INTERAKTIV VIZUAL TA'LIM VOSITALARI ORQALI
O'QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI (8-10 SINFLAR MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Ped1261 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namspi.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rasmiy opponentlar:

Nigmatov Asqar Nigmatullayevich
geografiya fanlari doktori, professor

Najmiddinova Xilola Yokubjanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Artikova Muhayyo Botiraliyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik kengashning 2025-yil «24» 12 soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69; e-mail: info@namspi.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (286 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «11» 12 da tarqatildi.
(2025-yil «11» 12 dagi 28 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R. Qodirxonov
M.R. Qodirxonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, k.f.d. (DSc), dotsent

S.X. Mutalov
S.X. Mutalov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, (PhD) dotsent

X.Yo. Najmiddinova
X.Yo. Najmiddinova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ekologik muammolar kun sayin keskinlashib, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, chiqindilarni boshqarish kabi masalalar global muammoga aylanib bormoqda. Ekologik muammolarni bartaraf etish maqsadida YUNESKO tomonidan "Barqaror rivojlanish uchun ta'lim" loyihasi doirasida ekologik madaniyatni rivojlantirish, interfaol multimedia vositalari orqali qulay ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ko'plab dasturlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, BMT tashabbusi bilan qabul qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030"¹ da ta'lim sifatini oshirish, tabiatni asrash va jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. YUNESKO va YUNEP kabi xalqaro tashkilotlarning ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida ekologik ta'limning axloqiy-etik, aksiologik, tushunchaga oid komponentlarini ta'minlash asosiy maqsad sifatida qayd etilgan. An'anaviy ta'lim jarayonida nazariy qismga asosiy e'tibor qaratilganligi sababli ekologik jarayonlarni o'quvchilar tomonidan jonli kuzatish, real voqealar bilan bog'lash imkoniyatlari yetarlicha to'liq emas. Interaktiv vizual ta'lim vositalari esa ekologik mavzularni sodda tarzda qabul qilish, qiziqarli holda o'rganish va amaliy xulosa chiqarishga keng sharoit yaratadi.

Dunyoda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar, jumladan, xorijiy umumiy o'rta ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tajribasini o'rganish va tahlil qilish jarayonida umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishda. Jumladan, Amerikada Harvard universiteti qoshidagi CLT (Center for Learning and Teaching) tomonidan ochiq resurslar xazinasida (Open Educational Resources) maxsus vizual platformalar orqali global iqlim o'zgarishi, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari haqida interaktiv materiallar joylashtirilib, maktab o'qituvchilari uchun qulaylik yaratiladi. Bundan tashqari, Eco-Schools² va Green School kabi dasturlar asosida maktablarning butun infratuzilmasini ekologik jihatdan yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilishda amaliy harakatlarni joriy etish va o'quvchilarni bu jarayonga faol jalb qilishni maqsad qiladi. NASA va ESA kabi kosmik agentliklar tomonidan ishlab chiqilgan yer monitoringi dasturlari maktablar bilan hamkorlikda olib boriladigan tarbiyaviy loyihalarda aniq ma'lumotlarni taqdim etish, atmosfera, suv havzalari va o'rmonlarni real vaqtda kuzatish imkonini beradi³.

O'zbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirish borasida bir qator davlat dasturlari, qonun hujjatlari va loyihalar amalga oshirilib, bu borada ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" doirasida atrof-muhitni asrash, yashil

¹ BMT va uning O'zbekistondagi sheriklari "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga erishish ustida ish olib bormoqda: ular O'zbekiston va butun dunyo aholisi duch kelayotgan asosiy muammolarni hal etishga qaratilgan 17 ta o'zaro bog'liq va ulkan maqsaddan iborat.

² Ekologik maktablar UNDESA – BMTning Barqaror rivojlanish uchun ta'lim o'n yilligi (2005 – 2014) tomonidan e'tirof etilgan global dastur bo'lib, o'quvchilarga o'z maktablari va jamiyatlarida barqarorlikni ta'minlashda faol ishtirok etish imkonini beradi.

³ <https://gov.uz/oz/uzspace/news/view/91090>

iqtisodiyotni joriy etish, yosh avlodga zamonaviy ekologik bilim va ko'nikmalarni singdirish borasida keng ko'lamlı islohotlar olib borilmoqda. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va xalqaro hamkorlar tomonidan "Yashil makon", "Ekologik targ'ibot markazlari" kabi loyihalar qo'llab-quvvatlanmoqda. Yurtimizning ayrim maktab, akademik litsey va kollejlarda virtual laboratoriyalar va 3D simulyatsiyalar joriy etilib, o'quvchilar ekologik jarayonlarni tajriba sifatida o'rganish imkoniga ega bo'lmoqda. Buning natijasida ekologik mavzudagi nazariy bilimlar real hayot misollari bilan asosli tarzda mustahkamlanib, yoshlarning amaliy ko'nikmalarini yanada rivojlantirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 26-sentabrdagi PF-149-son "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta'minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 30-dekabrda PQ-76-son "Atrofmuhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 19-avgustdagi 402-son "Ekologik audit sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida", 2024-yil 24-fevraldagi 101-son "Jamoatchilik ekologiya nazoratchisi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. YUNESKO ning "Barqaror rivojlanish yo'lida ta'lim" dasturlari, xususan ta'lim tizimida amalga oshirilgan izlanishlar, vizual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish

orqali o'quvchilarning atrof-muhitga oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning yuqori darajada natija berishi ta'kidlanadi. Shuningdek, UNEP (BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi)ning tadqiqot muassasalari hamda turli xalqaro ilmiy markazlar tomonidan o'tkazilgan izlanishlarda, ta'lim jarayonida raqamli ko'rgazmalilik hamda multimedia texnologiyalaridan foydalanish ekologik mas'uliyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutishi ilmiy asoslangan⁴. Jahon tajribalari asosida Worldwatch Institute kabi ekologik yo'nalishda faoliyat yurituvchi ilmiy markazlar, o'qitish metodikalari doirasida virtual laboratoriya va raqamli simulyatsiya kabi elementlarning o'quvchilarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Xalqaro universitetlar huzurida tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot markazlari (masalan, MIT Teaching and Learning Laboratory, Stanford Graduate School of Education yoki King's College London Ta'lim instituti) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlari interaktiv vizual darslar yordamida o'quvchilarning atrof-muhit muammolariga bo'lgan munosabati va ijodiy fikrlash darajasi oshishini, ekologik madaniyatga oid kompetensiyalar mustahkamlanishini tasdiqlaydi. Bu borada ayniqsa, ko'rgazmali materiallar, videolavhalar, interaktiv elektron manbalar, raqamli platformalar va simulyatsiya qurilmalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari alohida e'tibor qaratilmoqda. European Commission, EEA kabi Yevropa Ittifoqi tashkilotlari hamda California Education and the Environment Initiative doirasida kabi Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ta'lim markazlari ekota'limga ixtisoslashgan jahon ta'lim tizimiga mos pedagogik texnologiyalarni joriy etilib, ularda interaktiv vizual yondashuvlardan keng foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xalqaro standartlarga monand ravishda ekologik ta'limda atrof-muhit haqida, atrof-muhit yordamida va atrof-muhit uchun ta'limlari mavjud. Bu uchta komponent ekologik ta'lim va tarbiyaning bo'laklangan masalalarini bir butun yechimini ta'minlaydi. Masalan, Avstriyada kasbiy ekologik ta'lim va tarbiyaga

⁴ <https://tll.mit.edu/>

<https://ed.stanford.edu/pols/students/all>

https://www.eeas.europa.eu/uzbekistan/yevropa-ittifoqi-va-ozbekiston_uz

<https://www.californiaeei.org/>

<https://staff.tiiame.uz/storage/users/788/articles/fmNDAYC7bNuyjby3BfN2tRoS7pkhyF2nPNgZ46HV.pdf>

<file:///C:/Users/Admin/Downloads/ekologik-ta-lim-va-tarbiyada-xorijiy-tajriba.pdf>

Witkin H.A. Socialization, culture and ecology in the development of group and sex differences in cognitive style //Human Development. -1979. -T.22. -№.5. -P.118-122

Tolochko S. et al. Forming ecological culture in educational applicants within the context of modern education //Amazonia Investiga. – 2023. – T. 12

Tilbury D. Environmental education for sustainability: Defining the new focus of environmental education in the 1990s //Environmental education research. -1995. -T. 1. -№. 2. -P. 195-212

Steward J.H. The concept and method of cultural ecology //Anthropology in theory: Issues in Epistemology. -2005

Stevenson H.C. Raising safe villages: Cultural-ecological factors that influence the emotional adjustment of adolescents //Journal of Black Psychology

Shmith D., Shortt J. Pedagogy as method, ecology and home //Journal of Education and Christian Belief. -2004

Rapport D.J., Maffi L. Eco-cultural health, global health, and sustainability //Ecological Research. -2011

Potter G. Environmental education for the 21st century: Where do we go now? //The Journal of Environmental Education. -2009

Orr D.W. The nature of design: ecology, culture, and human intention. – Oxford University Press, -2002

King Y. Healing the wounds: Feminism, ecology, and nature/culture dualism //Feminism and philosophy. - Routledge, 2018

zamin tashyorlash maktab dasturlariga kiritilgan. Masalan, maxsus maktab loyihalarini tashkillashtirish (“Maktab bog‘i”, “Atrof-muhit tarixi”, “Maktabda ekologiya”, “Tabiat uchun ijodiyot”); tabiatni muhofaza qilish aksiyalarini o‘tkazish (“Ozon”, “Alp faoliyati”). Daniyadagi ekologik ta’lim va tarbiya muammolari barcha pedagogik kasbiy ta’lim tizimiga kiritilgan. Daniya skandinav davlatlari bilan Shimoliy Simpozium o‘tkazish va “Skandanaviyada atrof-muhit sohasida ta’lim”, “Boltiq dengizi”, “Shimoliy dengiz” xalqaro va “Toza daryolar”, “Kislotali yomg‘ir”, “Yashil bayroq” milliy ta’lim loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha doimiy loyihalar qatnashchisidir. Shvetsiyada ekologik ta’lim va tarbiya 1970-yilda “Yevropada atrof-muhit” yiliga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish arafasida yaratildi hamda atrof-muhit muhofazasi mavzusi yangi to‘qqiz yillik majburiy ta’limga kiritildi.

Umuman olganda, ushbu mamlakatlar ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun turli xil dasturlar va tashabbuslarni amalga oshirayotganini ko‘rsatadi. Bular, ekologik ongini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan. Bu yondashuvlar, kelajak avlodlarni ekologik masalalar bo‘yicha bilimlar bilan ta’minlash va ularni faol ishtirokchilar sifatida tarbiyalashga yordam beradi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Mamlakatimiz olimlaridan S.A. Azamova, D.Y. Nurishov, N.N. Ravshanova, G.K. Obidova, B.K. Xojanov⁵ A.Abdumalikov, A.J.Qurbonov, M.Abdullayeva, H.E.Toshmaxmatov, N.Xodjilayeva kabi olimlar interaktiv vizual ta’lim vositalari orqali o‘quvchilarda atrof-muhitga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonini ilmiy-tadqiqotlar asosi bilan bog‘laydi. Shuningdek, o‘quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasiga oid tavsiyalar bilan boyitadi.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlari (MDH) K.D. Ushinskiy, L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, V.A. Suxomlinskiy, A.S. Makarenko, P.P. Blonskiy, P.F. Kapterev, S.T. Shatskiy⁶ kabilar tomonidan ilmiy merosida interaktiv va vizual ta’lim vositalarining o‘quvchilarda mustahkam bilim hosil qilishga ta’siri, interaktiv yondashuv yordamida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligi, ta’limda tasviriy ko‘rgazmali materiallar orqali psixik rivojlanish darajasini yuqori bosqichga olib chiqish mumkinligi, shuningdek, ularning ekologik madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni keng ko‘lamda o‘rganilgan.

⁵ Azamova S.A. Ekologik globallashuv sharoitida O‘zbekiston umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2024. 49 bet.; Nurishov D.Y. Jismoniy tarbiya darslarida yuqori sinf o‘quvchilarni ekologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2024. 70 bet.; Obidova G.K. Kompleks yondashuv asosida talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish texnologiyasi (Texnika oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2024. 72 bet.;

⁶ Константин Дмитриевич Ушинский. Педагогическая антропология. – Москва: Просвещение, 2004. – С. 45-46.; 60.; Павел Петрович Блонский. Основы педагогической психологии. – Москва: Госучебпедгиз, 2001. – С. 87-89.; Петр Федорович Каптерев. Теория педагогического процесса. – Москва: Знание, 2003. – С. 112-114.;

Xorijlik olimlar J. Dyui, J. Piaje, D. Kolb, P. Freyr, M. Montessori, J. Bruner⁷ tomonidan o'quv jarayonida interaktiv vizual materiallardan foydalanish o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, atrof-muhitni anglash hamda ekologik tafakkurni shakllantirishda muhim vosita sifatida izohlangan va interaktiv metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarga real hayotiy tajribalarni aks ettiruvchi, amaliy faoliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar bera olishni ta'kidlagan.

Biroq vizual-didaktik vositalar, innovatsion o'qitish formatlari hamda pedagogik monitoring mexanizmlari asosida ekologik tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy metodik tizim qisman yoritilganligi mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, BM-24 "Pedagogik ta'lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari" mavzusi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy hamda amaliy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

interaktiv vizual ta'lim vositalari yordamida ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va metodologik yondashuvlarni asoslash;

ekologik ta'lim jarayonida interaktiv vizual ta'lim vositalarining strategiyalarni qo'llashning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish;

interaktiv vizual ta'lim vositalardan foydalanish bo'yicha amaliy-eksperimental dastur ishlab chiqish va uni ta'lim jarayonida sinovdan o'tkazish;

tajriba jarayoni natijalarini ilmiy-statistik tahlil qilish hamda interaktiv vizual ta'lim vositalarining pedagogik samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash;

interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish usullarni qo'llash bo'yicha takomillashtirilgan uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish jarayoni belgilanib, Namangan shahar 52-umumiy o'rta ta'lim maktabi, Kosonsoy tuman 34-umumiy o'rta ta'lim maktabi, Andijon viloyati, Baliqchi tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi hamda Toshkent viloyati, Bekobod tumani 2-umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borildi. Tajriba-sinov ishlariga jami 623 nafar o'quvchilar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning shakl, usul va metodlarini tashkil qiladi.

⁷ John Dewey. Experience and Education. Kappa Delta Pi, 1998. – P. 23-25; Jean Piaget. The Construction of Reality in the Child. Basic Books, 2004. – P. 45-47;; Paulo Freire. Pedagogy of the Oppressed. Continuum, 2000. – P. 81-85; Maria Montessori. The Absorbent Mind. Holt, Rinehart and Winston, 2007. – P. 92-94; Jerome Bruner. Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press, 2006. – P. 74-77.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy (statistik tahlil, qiyosiy tahlil, kompleks yondashuv, tizimli funksional yondashuv), diagnostik (suhbat, so'rovnomalar, kuzatish, tasniflash, intervyu), matematik va pedagogik eksperiment (ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, natijalarni grafik tasvirlash, modellashtirish, eksperiment va boshqalar) kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari interaktiv vizual ta'lim texnologiyalari kontekstida ilmiy jihatdan asoslanib, uning kognitiv, aksiologik, refleksiv komponentlarini o'z ichiga olgan yaxlit pedagogik model konseptual ravishda ishlab chiqilgan;

ekologik ta'lim jarayonida interaktiv vizual strategiyalarni qo'llashning didaktik imkoniyatlari interaktiv vizual vositalarni tanlash mezonlari asosida chuqur tahlil qilinib, mazkur didaktik strategiyalarning o'quvchilarning ekologik tafakkurini, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdagi pedagogik potentsiali ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan;

interaktiv vizual pedagogik texnologiyalar asosida ekologik ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan "Vizual-ekologik geografiya" dasturi ishlab chiqilib, o'quvchilarning ekologik motivatsiyasi, ekologik axloqi va ekologik mas'uliyat ko'rsatkichlarining sezilarli darajada rivojlangani empirik jihatdan asoslangan:

interaktiv vizual vositalarni tanlash mezonlari va ularning pedagogik jihatlari asoslanib, mazkur pedagogik vositalarning ekologik bilimlarni o'zlashtirish darajasi, ekologik qadriyatlar va ekologik ong shakllanishidagi samaradorligi ilmiy asoslangan pedagogik indikatorlar orqali aniqlashtirilgan;

interaktiv vizual pedagogik usullarni qo'llash bo'yicha takomillashtirilgan metodik tavsiyalar hamda interfaol ta'lim muhiti, vizual-didaktik vositalar, innovatsion o'qitish formatlari va ekologik tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan VIGT va IVEM metodlar asosida ekologik madaniyatni rivojlantirishning metodik tizim takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

interaktiv vizual ta'lim vositalari bilan boyitilgan dars jarayonlarini loyihalash va o'tkazish bo'yicha amaliy-metodik yo'riqnomalar ishlab chiqilib, ushbu yo'riqnomalar ta'lim jarayonida sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazildi;

ekologik madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik materiallar bazasi kengaytirilib, interaktiv ko'rgazmali vositalar asosida yaratilgan namuna dars ishlanmalari o'qituvchilar amaliyotiga joriy etildi;

interaktiv vizual strategiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ekologik mas'uliyati va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini baholash mezonlari takomillashtirilib, amaliy tadqiqotlarda ularning pedagogik samaradorligi isbotlandi;

o'quvchilarning atrof-muhitga nisbatan barqaror munosabatni shakllantirishda interaktiv vizual vositalardan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi hamda u orqali ekologik ta'lim samaradorligi oshirilishi ilmiy jihatdan dalillandi;

turli fanlar kesimida ekologik ta'limni integratsiya qilish imkoniyatlarini inobatga olgan holda interaktiv vizual materiallardan foydalanish uchun mo'ljallangan faoliyat ssenariylari va topshiriqlar to'plami yaratildi;

o'qituvchilarning interaktiv vizual texnologiyalarni qo'llash kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida amaliy seminar-treninglar tashkil etilib, ularning

natijasida yangi pedagogik yondashuvlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha tajriba ommalashtirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi nazariy ma'lumotlar, qo'llanilgan usullar, foydalanilgan axborotlarning rasmiy manbalardan olingani, tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistik metodlar orqali ilmiy asoslanganligi, xulosa va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, interaktiv vizual ta'lim vositalarini qo'llash orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslari takomillashtirilib, pedagogik jarayonning motivatsion, kognitiv va refleksiv komponentlarini chuqur tahlil qilishga zamin yaratildi. Tadqiqot doirasida yaratilgan konseptual yondashuvlar ekologik madaniyat masalalariga oid ilmiy-nazariy tadqiqotlarni yangi metodologik nuqtayi nazardan boyitilganligi hamda ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan keyingi izlanishlar uchun mustahkamlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot asosida ishlab chiqilgan interaktiv vizual ta'lim vositalarini qo'llash metodikasi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida foydalanish uchun tayyor amaliy yo'riqnomalar, dars ishlanmalari, baholash mezonlari va topshiriqlar to'plamini shakllantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Ushbu tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning ekologik mas'uliyat va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini mustahkamlash hamda turli fanlarda ekologik ta'limni integratsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish uchun real sharoitlarni yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning nazariy metodologik natijalari asosida:

Ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari interaktiv vizual ta'lim texnologiyalari kontekstida ilmiy jihatdan asoslangan holda, uning kognitiv, aksiologik, refleksiv komponentlarini o'z ichiga olgan yaxlit pedagogik modelni konseptual ravishda ishlab chiqishga oid taklif va tavsiyalar "Xalq pedagogikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli guvohnomasi). Natijada, ekologik madaniyatning puxta shakllanishini ta'minlovchi ta'lim uslublari va metodlarini joriy etish orqali o'quvchilarning ekologik bilim va qadriyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi ma'lumotlar qo'llanma mazmuniga singdirilgan;

ekologik ta'lim jarayonida interaktiv vizual strategiyalarni qo'llashning didaktik imkoniyatlari interaktiv vizual vositalarni tanlash mezonlari asosida chuqur tahlil qilinib, mazkur didaktik strategiyalarning ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan, o'quvchilarning ekologik tafakkurini, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdagi pedagogik potensialini belgilovchi nazariy-metodik asoslar 2024-2025-yillarda "O'zbekiston" teleradiokanalining ekologiya mavzulariga oid dasturlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 10-iyundagi 05-09-853-sonli ma'lumotnomasi).

Natijada, o'quvchilarning atrof-muhitga nisbatan barqaror munosabatlariga oid ta'lim strategiyalari keng miqyosda ommalashtirilgan;

Interaktiv vizual pedagogik texnologiyalar asosida ekologik ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan holda ishlab chiqilib, o'quvchilarning ekologik motivatsiyasi, ekologik axloqi va ekologik mas'uliyat ko'rsatkichlarining sezilarli darajada rivojlanganini empirik jihatdan asoslash omili bo'lgan "Vizual-ekologik geografiya" dasturi "Oila pedagogikasi" o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli guvohnomasi). Natijada, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida interaktiv vizual pedagogik usullarni qo'llash bo'yicha takomillashtirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ularda interfaol ta'lim muhiti, vizual-didaktik vositalar, innovatsion o'qitish formatlari hamda pedagogik monitoring mexanizmlari asosida ekologik tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy metodik tizimi takomillashtirilgan.

interaktiv vizual vositalarni tanlash mezonlari va ularning pedagogik jihatlari asoslangan holda, ekologik bilimlarni o'zlashtirish darajasi, ekologik qadriyatlar va ekologik ong shakllanishidagi samaradorligi ilmiy asoslangan pedagogik indikatorlar orqali aniqlashtirilgan mazkur pedagogik vositalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonlariga tatbiq etilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qoshidagi Ta'limni rivojlantirish markazining 2025-yil 15-avgustdagi 01-11-529-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, pedagogik jarayonda interaktiv vizual vositalarni qo'llash bo'yicha takomillashtirilgan amaliy tavsiyalar hamda uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilib, ularni turli ta'lim bosqichlari va fanlar kontekstida moslashuvchan qo'llash imkoniyatlarini mazmunli o'tkazishning amaliy asoslarini yanada rivojlantirishga erishilgan.

interaktiv vizual pedagogik usullarni qo'llash bo'yicha takomillashtirilgan metodik tavsiyalar hamda interfaol ta'lim muhiti, vizual-didaktik vositalar, innovatsion o'qitish formatlari va ekologik tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan VIGT va IVEM metodlar asosida ekologik madaniyatni rivojlantirishning metodik tizim takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan 2021-2022-yillarda Namangan davlat universitetida bajarilgan "Ko'zi ojizlar uchun innovatsion relyefli xaritaning yangi avlodini yaratish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining SP-1005/21-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ekologik madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik materiallar bazasi kengaytirilib, interaktiv ko'rgazmali vositalarning metodik ta'minoti takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta respublika, 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish chop etilgan, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning asosiy qismi 196 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, shuningdek, tadqiqotning obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqot ishining O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiliklar va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot ishini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan. O'zbekistondagi umumta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ustuvor barqaror rivojlanish prinsiplarini ta'minlash uchun keng jamoatchilikka eko-tarbiya berish lozim. Shu munosabat bilan ta'lim jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirish masalasi nafaqat fanlararo integratsiya, balki samarali pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Ekologik madaniyat tushunchasining pedagogik interpretatsiyasi bevosita shaxsni ma'naviy-axloqiy kamol toptirish bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilarda ekovajobgarlik hissini shakllantirish, tabiat bilan muvozanatda bo'lish qadriyatlarini tarbiyalash hamda eko-muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Yuqoridagi g'oyalarga qo'shilgan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ekologik tarbiya va madaniyat ma'rifiy ishlarni zamonaviy metodlar bilan integratsiya qilish lozimligi orta bordi. Ekologik madaniyat ta'lim mazmunida alohida yo'nalish sifatida emas, balki barcha fanlar bilan bog'lanib borishi, fanlararo integratsiyada amalga oshirilishi asosiy mezonlardan biri sifatida ilgari surila boshlangan. Bu holat pedagogika fanida yangi tushuncha – “ekologik kompetentlik”ni shakllantirish zaruratini ochib berdi. Bugungi kunda, ekologik madaniyat tushunchasining pedagogik interpretatsiyasi va uning umumiy o'rta ta'limdagi o'rnini ilmiy-nazariy asosda ishlab chiqish masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lib, bu jarayonda tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurati eng muhim konseptual nuqta sifatida e'tirof etiladi.

Pedagogika nazariyasida ekologik madaniyat shaxs ongida mehr-shafqat, tabiat bilan garmoniyada hayot kechirish, amaliy eko-ko'nikmalarni egallash bilan chambarchas bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi. Aynan shu sababli “ekologik madaniyat” tushunchasi bir paytning o'zida etika, estetika, tabiiy fanlar, tarbiyaviy jarayon hamda jamiyat taraqqiyotini uzviy birlashtiruvchi fenomendir. U umumiy o'rta ta'limda tanqidiy fikrlash, refleksiya, metakognitiv yondashuv va muntazam amaliy mashg'ulotlar orqali shakllanadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda ekologik kompetentlikni tarbiyalashda alohida etibor qaratilayotgan

“psixodidaktik” tus esa ta’lim munosabatlari, yosh psixologiyasi, interaktiv didaktika hamda texnologik innovatsiyalarning yakdil muvofiqlashuvini nazarda tutadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Umumiy o'rta ta'lim bosqichida ekologik kompetentlikni shakllantirishning psixodidaktik xususiyatlari

Psixodidaktika fanlararo sohalar (pedagogika, psixologiya, didaktika, neyropedagogika va boshqalar) chorrahasida rivojlanib, fanni anglash jarayonida o'quvchining hissiy, kognitiv hamda motivatsion ehtiyojlarini hisobga olishni taklif qiladi. O'quvchida ekologik madaniyatning namoyon bo'lishi tabiat bilan ongli munosabatda ko'rinadi. Pedagogik yondashuvlarda tabiat kishining yashash muhiti sifatida tushuniladi, u bilan bog'liq ilmiy qonuniyatlar hamda har birimiz birlamchi ehtiyojlarimizni aynan atrof-muhitdan olishimiz metodik ishlanmalarda keng aks etishi talab qilinadi. Binobarin, umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya, geografiya, kimyo, fizika, tarbiyaviy soatlar va hatto adabiyot darslarida ham ekologik madaniyat tushunchalari bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud. Shu sababli, ekologik madaniyat o'z mohiyati bilan turli fanlarda birlashuvchi, ular o'rtasida anglash va tatbiq etish jarayonini mustahkamlovchi qadriyatlar yig'indisi desak xato bo'lmaydi⁸. Pedagogika nazariyasida ekologik madaniyat tushunchasi bir necha tarixiy bosqichdan o'tgan. Avvaliga u ekologik tarbiya edi, keyinchalik ekologik ta'lim sifatida ko'ri-la boshlandi, hozirda esa o'quvchilarda ekologik kompetentlik, eko-mafkura, eko-salohiyat kabi tushunchalar bilan uyg'unlashgan holda pedagogik jarayonda alohida o'rin tutadi⁹. Ekologik madaniyat tushunchasi

⁸ Абдуазимова З. А. Шахс-эстетик дидини шакллантиришда эко-эстетик маданият //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 110-114.

⁹ Ходжиболаева Н. Экологик компентликнинг ижтимоий-педагогик мазмуни ва унинг компонентлари //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D6. – С. 250-256.

umumiy o'rta ta'limda fanlararo ifodani talab qiladi, chunki u modern davrda tabiiy muammolar holatini umumiy tushunish, ilmiy-pedagogik analiz etish hamda soha bo'yicha muhim muammolarni echishda zarur bo'lgan yondashuvlar majmuini ifoda etadi.

Ekologik madaniyat tushunchasiga pedagogik interpretatsiya berishda Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi mamlakatlar tajribasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu mamlakatlarda ekologik tarbiyani juda erta yoshdan boshlab yo'lga qo'yish an'analari mavjud. Xususan, Yaponiyada har qanday sanoat loyihasi yoki shaharsozlik rejasi muhokamasi eng avvalo ekologik ta'sirni baholash bilan boshlanadi, maktablarda esa geografiya, tabiiy fanlar, hatto texnologiya darslarida ham ekologik yondashuvlar mustahkam bo'ladi¹⁰.

Rossiyada pedagogika ilmiy maktablarida ekologik tarbiya islohotlari XX asr davomida bir necha bosqichda taraqqiy etgan bo'lib, uzluksiz ta'limda ekologiya yo'nalishini chuqurlashtirish maqsadi bilan maxsus eksperimental maktablar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ular bir vaqtning o'zida o'quvchilarda fanlararo bog'liqlikni yo'lga qo'yib, ekologiya, biologiya, kimyo, geografiya, tarix va adabiyot kabi fanlar oralig'ida integratsiyalagan holda ta'lim berish samaradorligini aniqlashgan¹¹.


“O'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishda interaktiv vizual ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasining nazariy-metodik modeli” nomi ostidagi ikkinchi bobda interaktiv vizual ta'lim vositalarini pedagogik jarayonda qo'llash orqali 8–10-sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat, ekologik etika hamda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish maqsad qilingan. Ta'kidlash joizki, an'anaviy dars jarayonida ekologik tarbiya masalasi tushuncha darajasida qolib ketishi mumkin, shu bois interaktiv texnologiyalar yordamida ekologik ta'limni chuqurlashtirish, amaliy ko'nikmalarni boyitish hamda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish eng dolzarb vazifalardan biridir.

Mazkur bobda birinchi navbatda nazariy-metodologik asoslar, didaktik tamoyillar, pedagogik shart-sharoitlar va ularni amalda ta'minlash mexanizmlari haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida vizual resurslardan foydalanish orqali ekologik tarbiyani interfaol tashkil etish mumkinligi, jumladan, virtual ekskursiyalar, animatsiyalar, infografika, elektron darsliklar, onlayn simulyatsiya hamda multimediamiy kontentlar haqida tahlillar beriladi.

Tadqiqot ishida Interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi modelini ishlab chiqdik (2-rasmga qarang). Bob doirasida “Zamonaviy ekologik muammolar” mavzusini 9-sinf “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanidan o'qitish uchun maxsus metodika ishlab chiqildi. Bu metodika “Vizual-Integrativ Geografik Tafakkur” (qisqacha VIGT) nomini oldi.

¹⁰ Багомаев М. А. Педагогические условия воспитания экологической культуры младших школьников в учреждении дополнительного образования: дис. – Махачкала: дис.... канд. пед. наук, 2009.

¹¹ Петрова Т. И. Педагогические условия реализации регионального компонента содержания экологического образования в начальной школе // Автореферат дис. канд. пед. наук. – 2000.



2-rasm. Interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi modeli

VIGT metodikasi o'quv jarayonida fanlararo bog'lanishlar, interaktiv vizual vositalar va amaliy mashqlar uyg'unlashuviga asoslanadi. Metodikaga asosiy urg'u o'quvchining global miqyosda sodir bo'layotgan ekologik muammolarni tushinishi va ularni hal etish bo'yicha shaxsiy munosabat shakllantirishiga qaratiladi. Bunda yoshlarning tanqidiy fikrlash, fanlararo mantiqiy bog'lanishlar o'rnatish, statistik axborotni tahlil qilish, faol pozitsiyada bo'lish qobiliyatlari rivojlanadi¹².

Metodikaning asosiy tamoyillari

1. Interaktivlik. Dars jarayonida pedagog "passiv eshitish" dan ko'ra "faol ishtirok etish" usullarini rag'batlantiradi. Vizual kontentlar shunchaki namoyish qilib beriladigan material emas, balki o'quvchining suhbatda, mashqlarda, muhokamada qatnashishi uchun asos bo'ladi.

2. Fanlararo integratsiya. "Zamonaviy ekologik muammolar" geografiya bilan bir qatorda biologiya, kimyo, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, huquq kabi fanlar bilan bog'liq. VIGT metodikasi har bir darsda ulardan bir ko'rinishda foydalanishni maqsad qiladi.

3. Amaliyot bilan uyg'unlashuv. Geografiya – bu amaliyot bilan chambarchas bog'langan fan. Shu sababli vizual kontentlar ramziy yoki sun'iy qolibda qolmay, real geografik jarayonlar yoki voqelikni aks ettiradigan shaklda namoyon bo'lishi kerak.

4. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Har bir o'quvchining individual qobiliyati, qiziqishi, psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Hozirgi raqamli muhitda ba'zi o'quvchilar 3D animatsiyani yaxshi qabul qiladi, boshqalari infografikalarni afzal ko'rishi, yana kimdir virtual ekskursiyalardan kayfiyat olishi mumkin¹³.

5. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Olingan vizual axborot shunchaki idrok etish bilan tugamaydi. VIGT metodikasida har bir mavzu bo'yicha muhokama, savol-javob, guruhli bahslar, kichik loyihalar olib boriladi.

Metodikani amalga oshirish bo'yicha ko'rsatma va dastur. Metodikaning amaliy tatbiqi uchun quyidagi tavsiya etilayotgan dastur ishlab chiqildi. Ushbu dastur "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanining 9-sinfi uchun 2-3 soatdan iborat "Zamonaviy ekologik muammolar" blogi asosida rejalashtiriladi. Darslar ketma-ketligi taxminiy ravishda shunday taqsimlanadi:

Birinchi mashg'ulot – "Global ekologik muammolarga kirish: iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va chiqindilar". Bu mashg'ulotda pedagog o'quvchilar bilan birgalikda aniq maqsadni belgilaydi: qanday asosiy ekologik muammolar bor, ular qanchalik tezkorlik bilan namoyon bo'lmoqda, shu orqali dunyoning turli mintaqalarida qanday holat kuzatilyapti. Dars avvalida dastlabki test bilan o'quvchilar bilimi aniqlanadi. Keyin interaktiv vizual vosita sifatida elektron xaritalar hamda infografikalar ko'rsatiladi. Masalan, iqlim o'zgarishi dinamikasini

¹² Tilbury D. Environmental education for sustainability: Defining the new focus of environmental education in the 1990s //Environmental education research. – 1995. – T. 1. – №. 2. – С. 195-212.

¹³ Пулатова Д. Т. Инновацион таълим жараёнида болаларда экологик тушунча ва тасаввурларни шакллантириш //Современное образование (Узбекистан). – 2016. – №. 3. – С. 28-35.

ko'rsatuvchi grafiklar, sohillarida suv sathi ko'tarilishi xavfi bo'lgan hududlar, chiqindilar uyumi eng katta bo'lgan mintaqalar. Keng ekranda YouTube kabi manbalarda uchraydigan qisqa hujjatli film (rolik) namoyish etilishi mumkin¹⁴.

Ikkinchi mashg'ulot – "Bioxilma-xillikni yo'qotish va er maydonlarining sho'rlanishi: mamlakatlar kesimida tahlil". Bu mashg'ulotda interaktiv xarita yordamida xalqaro tashkilotlar statistikasi taqdim etiladi. Xuddi shu o'rinda 3D animatsiya orqali sho'rlanish jarayoni, o'rmonlarni kesish yuqori bo'lgan regionlar bilan bog'liq nuqsonlar ko'rsatiladi. VIGT metodikasi talabiga ko'ra, xar bir o'quvchi yoki guruh qat'iy bir ko'rinishda materialni o'rganish bilan cheklanmaydi: ular tasvirlangan jarayonni tanqidiy o'rganadi, "nega bunday ko'lamda yo'qotish sodir bo'lyapti?", "bu qanday iqtisodiy, siyosiy oqibatlariga olib keladi?", "qanday echimlar mavjud?" kabi savollar asosida muhokama qilinadi. vizual kontent gapirish uchun asos bo'ladi.

Uchinchi mashg'ulot – "Amaliy mashq: virtual ekskursiya va guruhli loyihalar ishlab chiqish". Bu bosqichda pedagog bir nechta mamlakatni tanlashni tavsiya qiladi (masalan, Braziliya, Avstraliya, Xitoy, Grenlandiya) – geografik joylashuv, tabiat sharoiti, ekologik muammolar jihatidan bir-biridan keskin farq qiladigan hududlar. Virtual ekskursiya platformalari yordamida (masalan, Google Earth, National Geographic Education saytlari) o'quvchilar bu o'lkalarda uchraydigan ekologik krizis loyihasini tahlil qiladi. Ular ma'lum dalillar asosida aniq munosabat bildirishi, taxmin qilishi, mahalliy aholi hayoti, iqtisodiyoti qanday zarar ko'rishini ko'rsatib berishi lozim. G'oya shuki, vizual kontent real vaziyat haqida tushuncha beradi, tafakkurni aniqlashtiradi. O'quvchilar "Qanday qilib chiqindilar muammosini kamaytirish mumkin?", "Iqlim o'zgarishi shart-sharoitlariga moslashuvda odamlar nimalar qilishi kerak?" kabi savollarni o'rganib, loyihaviy echimlar ishlab chiqadi¹⁵.

To'rtinchi mashg'ulot – "Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish va natijalarni baholash". Oxirgi mashg'ulotda o'quvchilar o'z loyihalarini taqdim qiladilar. Pedagog baholash mezonlarini oldindan ma'lum qiladi: taklif qilingan echimlarning mantiqiyligi, vizual ma'lumotdan foydalanish ko'lamini, tanqidiy fikrlash darajasi, fanlararo bog'lanishlarni ko'rsata olishi. Shundan so'ng, guruhlar bir-birining ishini analiz qiladi, savollar beradi, bahs uyushtiradi. Bu jarayon yordamida mustaqil ishlab chiqilgan materiallar monitoring qilinadi, metodika samarasi aniqlanadi. Dars yakunida ilovaviy slayd-prezentatsiyada guruhlarning eng muhim xulosalari jamlanadi. Pedagog qisqa refleksiya o'tkazib, o'quvchilardan qaysi vizual vositalar eng anchayin ta'sirli bo'lganini aniqlaydi¹⁶.

Yangi ishlab chiqilgan metodika tayanchi sifatida biz "Interaktiv Vizual-Ekologik Modellash" (IVEM) deya nomlangan dasturiy yo'nalishni taklif qilamiz. IVEM bir paytning o'zida pedagogik texnologiya, didaktik metod va media-

¹⁴ Monroe M. C., Andrews E., Biedenweg K. A framework for environmental education strategies //Applied Environmental Education & Communication. – 2008. – T. 6. – №. 3-4. – C. 205-216.

¹⁵ Bonnett M. Environmental education and the issue of nature //Journal of Curriculum Studies. – 2007. – T. 39. – №. 6. – C. 707-721.

¹⁶ Palmer J. Environmental education in the 21st century: Theory, practice, progress and promise. – Routledge, 2002.

resurslar majmuasi sifatida shakllanadi. Bu metodikada “Global ekologik muammolar” mavzusi doirasida bir nechta bosqichlarni o‘tish nazarda tutiladi.

Birinchi bosqich – motivatsiya, ya’ni o‘quvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otish, 3D animatsiya yordamida, masalan, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq bir necha ko‘rgazmali lavhalar ko‘rsatish. Bu lavhalarda quruqchilikda sodir bo‘ladigan zamonaviy o‘rmon yong‘inlari oqibatlari, uning mahalliy iqlimga ta’siri, bir necha yil ichida tabiiy resurslarning kamayishi, olis mintaqalarda bioxilma-xillik parchalanishi kabi manzaralar kiritiladi. Ya’ni yoshlarda konkret qiziqish, keyin esa emotsional hissiyot uyg‘onadi.

Ikkinchi bosqich – tushuntirish, ya’ni o‘quvchilar bilan didaktik materiallar orqali turli xaritalar, onlayn multimedia bilan tanishtirish. Masalan, barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida iqlim o‘zgarishi indeksleri, ayrim mamlakatlar ulushi, chiqindilar miqdori ko‘rsatilgan diagrammalar. Bunday xaritalarni aniq sharhlab borar ekan, pedagog fanlararo bog‘lanish yo‘li bilan (kimyo darsida olingan SO₂, SO, NO_x kabi gazlar haqidagi tushunchalarni takrorlash, fizika darsida gaz molekularining atmosferada tarqalishi to‘g‘risida, biologiyada fotosintez jarayonida o‘simliklarning ahamiyati haqida) o‘quvchida yaxlit qarashni mustahkamlaydi.

Uchinchi bosqich – muammo yoki keys bilan ishlash. Masalan, o‘quvchilar virtual ekskursiya shaklida Amazon o‘rmonlarida olib borilayotgan kesish jarayonlarini 3D ko‘rinishida kuzata oladilar. Bu resurs bir necha daqiqalik maxsus programma sifatida yoki onlayn kontent ko‘rinishida taqdim etilishi mumkin. Maqsad – o‘quvchini go‘yo o‘sha joyni “bevosita guvohi” sifatida his qilishga undash. Shundan so‘ng pedagog tanqidiy savollar beradi: oradan necha yil o‘tib bu hududda bioxilma-xillikda qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi, iflos havo qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi, mahalliy aholi etnoslari qaysi jabhada ko‘proq zarar ko‘radi? Keyin guruhlar orasida muhokama tashkil etiladi, ular birgalikda echim sanalgan g‘oyalarni ishlab chiqadi, masalan, qayta tiklanuvchi o‘rmon hududlarini yaratish, eko-turizmni yo‘lga qo‘yish, chora-tadbirlar paketi haqida fikr almashadilar. Pedagog keys yakunlarida o‘quvchilar takliflarini baholaydilar, ayrim ilmiy-faktik to‘g‘rilovlar kiritib boradi. Natijada o‘quvchilar an’anaviy darsda aslo ko‘ra olmaydigan modullar bilan tanishadi, ekologiya va global muammolar ustida birmuncha chuqur fikr yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayonda pedagog qo‘lda mavjud bo‘lgan boshqa multimediaviy ko‘rsatkichlar, masalan, global iqlim o‘zgarishining dinamikasi aks etgan grafiklardan ham foydalanishi mumkin¹⁷.

To‘rtinchi bosqich – refleksiya, ya’ni o‘quvchilar o‘zlari tushungan g‘oyalar, echimlar, nazariy tushunchalarni muntazam biriktirib borishi lozim. IVEM metodikasida refleksiyani qo‘llash uchun maxsus elektron kundalik yoki an’anaviy uslubda ham foydalanish mumkin. Biroq elektron kundalik qulaylikka ega, chunki unda animatsiyalar, suratlar, skrinshotlar qo‘shimcha tarzda saqlanadi, o‘quvchi darsdan so‘ng ham uyali telefon yoki planshetdan topshiriqlarni bajarishi, zarur

¹⁷ Hungerford H. R., Volk T. L. Changing learner behavior through environmental education //The journal of environmental education. – 1990. – T. 21. – №. 3. – C. 8-21.

paytda ma'lumotlarni eslab qolishi osonlashadi. Pedagogik nazariyada bunday refleksiya uchuvchi ko'nikmalarni yanada mustahkamlash omillarini ishga soladi, bu esa ekologik madaniyat rivojiga turtki bo'ladi¹⁸.

Beshinchi bosqich – baholash mexanizmi. IVEMda bunda ikki xil usul ko'zda tutiladi: testlar (qisqa savol-javoblar, tushunchaning darajasi tekshiruvlari) va ko'nikmalari baholash usullari (masalan, jamoaviy keys muammolarni hal etishda har bir o'quvchining ishtiroki, uning ilmiy dalillar keltirishi, innovatsion yondashuv, axborotni aniq sarhisob bilan tashkil eta olishi). Birinchi usul kognitiv bilish darajasi haqida ma'lumot bersa, ikkinchi usul birmuncha chuqur, ekologik ma'rifatga ega bo'lgan shaxs sifatida rivojlandi-rivojlanmaganini ko'rsatadi. Natijalar turli diagramma, statistik jadvallar orqali tahlil qilinishi, pedagog tomonidan nazorat guruhi bilan eksperimental guruh ko'rsatkichlari solishtirilishi mumkin¹⁹.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Interaktiv vizual ta'lim vositalari asosida o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishning amaliy-texnologik ta'minoti”** deb nomlangan. Interaktiv vizual vositalar bilan ishlashda o'quvchilar nafaqat passiv qabul qiluvchi, balki faol ijodkor sifatida qatnashadilar. Bunda konstruktiv yondashuv, hamkorlikda o'qish, loyihaviy metod kabi amaliyotlar muhim vosita sifatida maydonga chiqadi. Masalan, virtual laboratoriyalar yordamida amaliy tajribalarni sinf xonasining o'zida namoyish etish, real tabiat hodisalarini modellashtirish yoki ko'p o'lchamli animatsiyalar orqali ekologiya bilan bog'liq jarayonlarni illyustratsiya qilish o'quvchilarda uzluksiz qiziqish uyg'otadi. Shu tariqa o'quvchilar o'rganilayotgan mavzu – atmosfera ifloslanishi, bioxilma-xillikni asrash yoki qayta tiklanuvchi energiya manbalari – haqida nazariy bilimni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirgan holda egallaydilar. Bu jarayonda vizual ta'lim kontentlarini ishlab chiqish texnologiyasi didaktik tamoyillar bilan uyg'unlashgan holda tashkil etilishi zarur. Jumladan, o'quv maqsadlarining aniqlanishi, mazmunning maqsadga yo'naltirilgan tarzda tanlanishi, o'quvchilarning yosh-psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish, axborot uzatishda yorqinligini ta'minlovchi metodik yondashuv kabi jihatlar vizual ta'lim tizimini qabul qilishni osonlashtiradi. Vizual kontentni ishlab chiqishda multimedia texnologiyalari, grafik redaktorlar, taqdimot dasturlari, geoaxborot (GIS) vositalari, 3D animatsiyalar eng samarali ilmiy-pedagogik echimlarni beradi. Bu kabi texnologiyalar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mushohada qilish, mantiqiy tahlil va eng muhimi, ekologik muammolar echimiga bo'lgan ilmiy yondashuvni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Interaktiv vizual vositalarni tanlash mezonlari bir qancha pedagogik prinsiplar bilan bog'liq. Birinchidan, realistiklik (o'quvchilarni haqiqiy muhitga yaqinlashtirish imkoniyati), ikkinchidan, foydalanish imkoniyatlari (o'quvchilar yoshiga mosligini ta'minlash, texnik imkoniyatlar), uchinchidan, didaktik

¹⁸ Gigliotti L. M. Environmental education: What went wrong? What can be done? //The Journal of Environmental Education. – 1990. – T. 22. – №. 1. – С. 9-12.

¹⁹ Магруппов А. М. Таълим муассасасида инновацияларни жорий қилиш стратегиялари ва раҳбарнинг роли //Современное образование (Узбекистан). – 2017. – №. 6. – С. 59-65.

moslashuvchanlik (mazmuni qisqartirish yoki kengaytirish mumkinligi), to‘rtinchidan, o‘quv motivatsiyasini oshirish (bandlik darajasi va qiziquvchanlikni kuchaytirish) kabi mezonlar asosida vositalar saralab olinadi. Shu bilan birga, vizual vositalar mustaqil tadqiqot yoki loyihaviy ish tashkil qilish imkoniyatini ham berishi maqsadga muvofiq. Masalan, virtual sayohatlar (Virtual Tours) yoki “animatsiyalashtirilgan keyslar” yordamida voqelikni ilmiy-amaliy tahlil qilish o‘quvchilarning e‘tiborini o‘quv jarayoniga faol jalb qiladi. Ekologik ta‘lim jarayonida interaktiv vizual vositalarni qo‘llash bo‘yicha amaliy dars ishlanmalari, mashg‘ulot ssenariylari va didaktik materiallar tarkibida bir nechta muhim didaktik elementlar qamrab olinadi. Jumladan, dars ishlanmalarida maqsadlar taksonomiyasi (Bloom taxonomies) asosida bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash darajalari maqsadli ravishda aniqlanayotgan bo‘lsa, mashg‘ulot ssenariylari nuqtai nazardan monitoring va refleksiya uchun maxsus bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Vizual materiallar turli shaklda o‘quvchilarga taqdim etilib, yorqin tasvirlar, interaktiv grafikalar, videofragmentlar asosida muammoli vaziyatlar hosil qilinadi. Ana shunday qaror qabul qilish jarayonlarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va ekologik ma‘lumotni kompleks idrok qilish ko‘nikmalari yuzaga keladi.

O‘quvchilarning ekologik madaniyati nima ekanini aniq ta‘riflash uchun pedagogik adabiyotda bir nechta qarash mavjud, ammo zamonaviy yondashuvlarda “ekologik madaniyat” keng ma‘noda atrof-muhit qadriyatlariga nisbatan ongli munosabat, ularni avaylab asrash, xalqaro ekologik muammolardan xabardorlik hamda amaliy harakat bilan yordam berish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. B.Mamadaminovning “Ekologik ta‘lim-tarbiya xususida” ilmiy asarida o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarida shunday ko‘rsatmalar alohida o‘rganilishi va pedagoglar o‘zaro malaka almashishi shartligi haqida fikr yuritadi. Ushbu yondashuv bosqichida vizual materiallar bilan bog‘liq jarayonlarni zarur vosita sifatida e‘tirof etilishi kerak deydi. “Aholining ijtimoiy faoliyatida ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari” nomli asar muallifi N.Pulatovani ta‘kidlashicha, ma‘ruzalarda slaydlardan foydalanish, turli onlayn tahlillar o‘tkazish, sayyor simulyatsiyalarda qatnashish, guruh bo‘lib layfhaklar paydo qilish, bioxilma-xillikni asrash masalasi, iqlim o‘zgarishi kabi dolzarb mavzularda birgalikda ish yuritish 10-sinf o‘quvchilarini juda jiddiy ilmiy izlanishlarga tashlab berishi mumkin. Shu sababli interfaollik jarayoni pedagogik vazifalarni to‘g‘ri moderatsiya qila olsa, birikadigan samaralar ancha yuqori bo‘ladi. Ushbu jarayonda amaliy-texnologik ta‘minotni amalga oshirishda yana bir nazariy jihat u yoki bu vizual vositaning o‘quvchilarda motivatsiya darajasini uyg‘otish yoki uyg‘otmasligidir. Chunki pedagogikada motivatsiya ta‘limi eng muhim psixodidaktik sharoitlarning biri sifatida ko‘riladi.

Shu bois 8–10-sinf o‘quvchilari uchun aniq yo‘naltirilgan interaktiv vizual ta‘lim vositalarini tanlash va ular asosida ishlab chiqilgan didaktik materiallar tadqiqot laboratoriyalaridagi empirik sinovlar, monitoring hamda diagnostika orqali ilmiy asoslashni talab etadi. Diagnostika ko‘rsatkichlari sifatida esa o‘quvchilarning ekologik bilim bazasi, amaliy ko‘nikmalari, shaxsiy ekologik tashabbuskorligi, o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmalari singari me‘yorlar belgilab

olinadi. Shu nuqtai nazardan, ekologik madaniyatni diagnostika qilish va monitoringini tashkil etish texnologiyasi asosida baholash mezonlari, ko'rsatkichlar tizimi va baholash vositalari ishlab chiqiladi. Dastlabki bosqichda o'quvchilarni eko-bilim darajasi (ekologik konsepsiyalarni tushunish, atrof-muhit bilan munosabatda mas'uliyat ko'rsatish) aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda mashg'ulotlar jarayonida eko-onglash, eko-qadriyatlar, eko-mahoratlar transformatsiyasini muntazam monitoring qilish maqsadida anketalash, suhbat, amaliy topshiriqlar (keyster) hamda testlar orqali ma'lumotlar yig'iladi. Uchinchi bosqichda o'quvchilarda egallangan bilimlar va ko'nikmalarni qanchalik darajada amalda qo'llash imkoniyati borligi o'rganiladi. Buni o'z ichiga olgan baholash vositalari esa loyihaviy faoliyatda qatnashish, tabiatni avaylash aksiyalarida qatnashish, mustaqil amaliy tadqiqot ishlari orqali namoyon bo'ladi.

Ekologik madaniyat diagnostikasida empirik ma'lumotlar tashxisini obyektiv baholash maqsadida statistik usullar (masalan, korrelyatsion tahlil, faktorlar tahlili) ham qo'llanilishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar o'quvchilarda ekologik kompetensiyalarning qanday darajada rivojlanib borayotganini kuzatish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, pedagogik metodikada emotsional-tajriba (affective domain) ko'rsatkichlariga ham e'tibor qaratish lozim. Interaktiv vizual ta'lim vositalarini amaliyotga tatbiq qilish orqali kelib chiqadigan eng muhim o'zgarishlardan biri – o'quvchilarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, havo ifloslanishi, suv resurslarini tejash yoki chiqindilarni qayta ishlash borasida aniq malakalar shakllanishi, shuningdek, bu masalalarda shaxsiy munosabatlar tizimini yo'lga qo'yishdir. Vizual vositalarda sun'iy intellekt elementlari yoki simulyatsiyalar orqali turli ssenariylarni model qilish imkoni, tabiatni asrash zaruratini chuqur his qilish va bir vaqtning o'zida ilmiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, simulyatsiya-loyihalarda har qanday ekotizimda kichkina bir parametr o'zgarishi qanday global oqibatlariga olib kelishi aniq ko'rsatiladi. Shu tariqa o'quvchi o'zi qabul qilishi mumkin bo'lgan qarorlar rahbarligida real hayotda ham o'zida mas'uliyat hissini chuqur shakllantirib boradi.

Tadqiqotning to'rtinchi bobi **“Interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasining tajribasino'v natijalari va ularning tahlili”** deb nomlangan. Eksperimental jarayonda interaktiv vizual ta'lim vositalarining bilish faolligi, rahbarlik qobiliyati va ijodkorlikni rag'batlantirish xususiyatlarini ham aniqlash imkoniyati paydo bo'ldi. Ta'lim metodlari orasida klasterlar tuzish, aqliy hujum, real vaqtda muloqot imkonini beruvchi onlayn seminarlar, kvest-shakldagi masalalarni birgalikda hal etish jarayonida ko'rgazmali materiallardan monitoring qilish tizimi asosida foydalanish eng yaxshi natijaga erishish imkoniyatini bergan. Shuni aytish mumkinki, bunday tajriba-tahlil jarayonlari o'quvchilarda ekologik mafkura bilan birga tanqidiy fikrlashni ham rivojlantirib, ularni mustaqil g'oya paydo qilishga o'rgatadi. Masalan, ba'zi guruhlar aniq loyihalar ustida ish olib borib, chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha mahalliy korxonalar, mahalla idoralari bilan hamkorlikka asoslangan mini-tashabbuslar ro'yxatini taqdim etgan bo'lsa, boshqa guruhlar maktab ichida turli eko-loyihalarni yo'lga qo'ydi. Natijada o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishdi, balki o'rganganlarini haqiqiy hayotda sinovdan o'tkazish tajribasini ham orttirishdi. Olingan natijalar pedagogik baholash mezonlari asosida ilmiy tahlil qilinganda, ekologik bilimlar, qadriyatlar,

munosabatlar, amaliy faollik kabi bo‘g‘inlar bo‘yicha deyarli hamma ko‘rsatkichlarda eksperimental guruhda yuqori o‘shish kuzatildi. Nazorat guruhi bilan taqqoslanganda bu o‘shish ayrim jihatlarida o‘rtacha 15–20% ni tashkil etgan bo‘lsa, amaliy faollik bo‘yicha 25–30% gacha etishi kuzatildi. Bu natijalar xulosa qilish imkonini beradiki, interaktiv vizual ta‘lim vositalari bilan boyitilgan pedagogik modellar o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda katta potensialga ega.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishda eng avvalo pedagogik tajriba-sinov bazasi aniqlandi. Mazkur tajriba-sinov ishlari uchun tayinlangan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida didaktik tamoyillar asosida tajribaviy mashg‘ulotlar tashkil etildi. Tajriba-sinov bazalari belgilandi. Tajriba va sinov sinflari tarkibi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari 2022-2023, 2023-2024, 2024-2025 o‘quv yillarida Namangan viloyati, Namangan shahar maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga qarashli 52-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, Kosonsoy tuman maktabgacha va maktab ta‘limiga qarashli 34-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, Andijon viloyati, Baliqchi tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga qarashli 14-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi hamda Toshkent viloyati, Bekobod tuman tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga qarashli 2-umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida olib borildi. Tajriba-sinov ishlariga jami 623 nafar o‘quvchilar jalb qilindi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi: *aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat-tahlil* bosqichlari. Har bir bosqichda o‘quvchilarning ekologik bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash uchun maxsus mezonlar asosida monitoring ishlari olib borildi.

Aniqlovchi bosqich: Ushbu bosqichning asosiy vazifasi – eksperimental sinf ishtirokchilarining ekologik bilim, ko‘nikma va malaka darajasini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Aniqlovchi bosqich diagnostik metodlar asosida tashkil etildi.

Qo‘llanilgan metodlar:

• **So‘rovnoma:** o‘quvchilarning ekologik muammolarga munosabati, kundalik hayotdagi ekologik odatlari va shaxsiy mas‘uliyatini o‘lchash uchun tuzildi.

Umumiy o‘rta maktablarining 8-10-sinflaridagi geografiya darslarida interaktiv vizual ta‘lim vositalari orqali o‘quvchilarning ekologik madaniyatini aniqlash maqsadida tuzilgan so‘rovnoma, baholash mezonlari va ballik tizimi quyidagicha aniqlandi:

Tajriba o‘tkazilgan mavzu : *“Mening ekologik madaniyatim”*

Maqsad: O‘quvchilarning ekologik muammolarga munosabati, ekologik odatlari va shaxsiy mas‘uliyatini aniqlash.

Javoblar shakli: Har bir savolga “ha”, “qisman”, yoki “yo‘q” javoblari tanlanadi.

Baholash mezonlari (ball asosida):

Ekologik madaniyat darajasi: **Yuqori daraja** – barqaror ekologik odatlarga ega, mas‘uliyatli, **O‘rta daraja** – ijobiy odatlar mavjud, ammo barqaror emas, **Past daraja** – ekologik odatlar zaif yoki etarli emas.

Shakllantiruvchi bosqich: O‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ya‘ni ekologik bilim, ko‘nikma va ijtimoiy mas‘uliyat hissini amaliy darslar orqali mustahkamlash.

Shakllantiruvchi bosqich: Maqsad: O‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ya’ni ekologik bilim, ko‘nikma va ijtimoiy mas’uliyat hissini amaliy darslar orqali mustahkamlash.

1-jadval

Amaliy mashg‘ulot darslarida o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash

Faoliyat turi	Tavsifi
Interaktiv darslar	Geografiya darslariga ekologik mavzular kiritildi. Masalan: “Suv resurslari va ularning muhofazasi”, “Atmosfera ifloslanishi” mavzulari elektron xaritalar, animatsiyalar va simulyatsiyalar orqali tushuntirildi.
Virtual ekologik ekskursiyalar	AR/VR vositalari orqali o‘quvchilar ekologik muammoli hududlarga “sayohat” qildilar.
Ekologik loyihalar	O‘quvchilar kichik guruhlarda ekologik mavzuda taqdimotlar, plakatlar va videoroliklar tayyorladilar.
O‘yinli topshiriqlar	“Ekologik viktorina”, “Toza havo uchun kurash”, “Tabiatni muhofaza qil!” kabi interaktiv o‘yinlar o‘tkazildi.
Refleksiya (fikir-mulohaza) darslari	Har bir mashg‘ulotdan so‘ng o‘quvchilarning o‘z faoliyatiga baho berishlari uchun ochiq savollar va tafakkur xaritalari qo‘llanildi.

Nazorat-tahlil bosqichi: Shakllantiruvchi bosqichdan keyingi o‘quvchilarning ekologik bilim, ko‘nikma va munosabatlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash va metodikaning samaradorligini baholash.

Nazorat-tahlil bosqichi; Bosqichning asosiy maqsadi shakllantiruvchi bosqichdan keyingi o‘quvchilarning ekologik bilim, ko‘nikma va munosabatlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash va metodikaning samaradorligini baholash. Amalga oshirilgan ishlar:

1.Takroriy diagnostika o‘tkazildi. Aniqlovchi bosqichda qo‘llanilgan metodik vositalar (so‘rovnomalar, test, kuzatuv) qayta qo‘llanildi.

2. Ekologik faoliyat bo‘yicha yakuniy loyiha ishlari.

- O‘qituvchilardan ekologik ong va madaniyatini rivoji haqidagi fikrlar olindi.
- Aniqlovchi va nazorat bosqichidagi ballar o‘rtasidagi farq hisoblab chiqildi.
- Diagrammalar orqali foizli o‘sish (yoki kamayish) aniqlanadi.
- Eksperimental va nazorat guruhlarini o‘rtasidagi farq statistik tahlilga tortildi.

2-jadval

Baholash mezonlari va ballar

To‘g‘ri javoblar soni	Ball (1 ta = 1 ball)	Baholash darajasi
8 - 10 ta	8 - 10 ta	Yuqori bilim darajasi
5 - 7 ta	5 - 7 ta	O‘rta bilim darajasi
0 - 4 ta	0 - 4 ta	Past bilim darajasi

Baholash mezonlarining tavsifi :

1. Amaliy topshiriqlarda ishtirok: Ekologik mavzudagi mashg‘ulotlarda faol qatnashish darajasi.

2. Tashabbuskorlik: Mustaqil ekologik g‘oyalar ilgari surish yoki savollar berish

3. Jamoaviy ishdagi faollik: Guruhda fikr bildirishi, vizual vositalardan foydalanish:


4. Ekologik plakatlar, diagramma, elektron slayd, AR/VR ko'rgazmalar tayyorlashi.

Tajriba–sinov ishi barcha obyektlari deyarli bir xil pedagogik natijalarni ko'rsatdi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Tajriba-sinov o'tkazilgan barcha ta'lim muassasalari bo'yicha umumiy natijalar

Ta'lim muassasasi nomi	Ko'rsatkich	Tajriba sinflarida				Nazorat sinflarida			
		Tajriba boshida o'quvchilar soni	%	Tajriba oxirida o'quvchilar soni	%	Tajriba boshida o'quvchilar soni	%	Tajriba oxirida o'quvchilar soni	%
Barcha maktablarda	Yuqori	45	13,8	85	26,0	47	15,9	52	17,6
	O'rta	112	34,3	196	59,9	99	33,4	101	34,1
	Past	170	52,0	46	14,1	150	50,7	143	48,3



3-rasm. Tajriba-sinov o'tkazilgan barcha ta'lim muassasalari bo'yicha umumiy natijalar diagrammasi.

Tajriba-sinov ish jarayonida olingan natijalar interaktiv vizual ta'lim vositalari asosida o'quvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini ishlashi uchun ushbu ishda nazariy jihatdan asoslanganligini isbotladi.

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda o'quvchilarning tajriba va nazorat sinflaridagi o'rtacha o'zlashtirishlarini Studentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil qildik.

Statistik tahlilni har ikki sinf bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, taqqoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{x}_0 = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} p_i x_i = \frac{5 \cdot 85 + 4 \cdot 196 + 3 \cdot 46}{327} = 4.12$$

$$\bar{y}_0 = \frac{1}{m} \sum_{j=1}^{m=3} p_j y_j = \frac{5 \cdot 52 + 4 \cdot 101 + 3 \cdot 143}{296} = 3.69$$

Samaradorlik koeffitsienti: $\eta = \frac{\bar{x}_0}{\bar{y}_0} = \frac{4.12}{3.69} \approx 1,12$

O‘rtacha o‘zlashtirish koeffitsienti: $\left(\frac{4.12}{3} - \frac{3.69}{3}\right) \cdot 100 = 14.2\%$ (4-jadvalga qarang)

4-jadval

Miqdoriy mezonlar ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
		Tajriba-sinov sinfi n=327	Nazorat sinfi m=296	Tajriba-sinov sinfi n=327	Nazorat sinfi m=296
1.	O‘rtacha arifmetik qiymat	3.65	3.61	4.12	3.69
2.	Samaradorlik ko‘rsatkichi	0.99		1,12	
3.	O‘rtacha qiymat ishonch oralig‘i	[3,59;3,62]	[3,56; 3,58]	[4.05; 4.19]	[3.6; 3,78]
4.	O‘rtacha qiymat standart xatolik	0.71	0.73	0.62	0.75
5.	Styudent statistikasi (T)	0.81 (0.81 < 2.03)		11.1 (11.1 > 2.01)	
6.	Ko‘rsatkichlar xulosasi	N0 gipoteza qabul qilinadi		N1 gipoteza qabul qilinadi	

Tadqiqot natijasida tajriba-sinov ishlari nihoyasida tajriba sinflaridagi o‘quvchilarning ekologik madaniyatini o‘sganlik darajalari nazorat sinflariga nisbatan 1,12 barobar yuqori, o‘rtacha o‘zlashtirish koeffitsienti 14.2 % ga yuqori ekanligi aniqlandi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-metodik tadqiqot natijalari tahlili va yakunlariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Interaktiv vizual ta‘lim vositalarini ekologiyani o‘qitish amaliyotiga joriy etish pedagogik innovatsiya sifatida e‘tirof etilishi lozim. Mazkur vositalar o‘quvchilarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda ko‘rgazmalilik, axborotni aniq tushunish va uzoq muddat yodda saqlashni kuchaytirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa vizual kontentlar atrof-muhitni muhofaza qilish zarurati haqida ongli yondashuvni rivojlantiradi, o‘quvchilarda ekologik madaniyatni mus-tahkamlash uchun psixologik-pedagogik asos yaratadi.

2. “Ekologik madaniyat” tushunchasini umumta‘lim maktablarida qo‘llashda psixodidaktik xususiyatlarni e‘tiborga olish zarur. Chunki ekologik ong faqat nazariy bilim emas, balki shaxsiy qadriyatlar, xulq-atvor normalari bilan uzviy bog‘liq. Zamonaviy pedagogik paradigmalar shundan dalolat beradiki, fanlararo integratsiya vositasida o‘quvchilarda ekologiya bo‘yicha metakognitiv ko‘nikmalar rivojlanadi va atrof-muhitga nisbatan javobgarlik hissi yuqori darajaga ko‘tariladi.

3. Jahon tajribasida interaktiv vizual ta‘lim vositalarini ekologik ta‘limda qo‘llash eng maqbul pedagogik texnologiyalardan biri sifatida baholanmoqda. Multimedaviy trenajyorlar, 3D animatsiyalar, onlayn platformalar kabi vizual tizimlar o‘quvchilarda tahliliy tafakkurni rag‘batlantirib, bilim va amaliy ko‘nikmalar uyg‘unligini kuchaytiradi. Bunday usullarning milliy ta‘lim tizimiga implementatsiyasi lokal ekologik muammolarni ham samarali hal qilishda ilmiy yondashuvni rivojlantiradi.

4. O‘quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasining nazariy-metodik modeli fanlararo muvofiqlashgan tartibdagi vizual ta‘lim kontentlarini qamrab oladi. Unda didaktik tamoyillar (topshiriqlarni bosqichma-bosqich

murakkablashtirish, ilmiylik, fanlararo bog‘lanish va rag‘batlantiruvchi muhit yaratish) asosida maxsus mashg‘ulotlar, trenajyorlar va suhbatlar tashkil etilishi nazarda tutiladi. Bu jarayonda psixodidaktik asoslar e‘tiborga olinishi o‘quvchilarda tabiatni asrash borasida tanqidiy fikrlash, eko-mahorat va amaliy kompetensiyalarni kuchaytiradi.

5. Vizual ta‘lim kontentlarini tasniflash va ularni metodik jihatdan to‘g‘ri tanlash – o‘quvchilarda ekologik tafakkur hamda ongli munosabatni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Masalan, virtual ekskursiyalar atrof-muhit transformatsiyasini vizual ko‘rsatib, ekologik muammolarni ilmiy tahlil qilish ko‘nikmasini taraqqiy ettiradi. Shu bilan birga, multiformat resurslar (video, animatsiya, infografika) o‘quvchilarda turli tipdagi axborotni qabul qilish sohasida keng qamrovli kompetentlik hosil qiladi.

6. Ekologik ta‘lim metodikasini amalga oshirish mexanizmlarida pedagogik shart-sharoitlar muhim o‘rin tutadi. Dars jarayonida AKT vositalari bilan jihozlanish, o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi, fanlararo hamkorlik mavjudligi, shuningdek, o‘quvchilarda motivatsiya shakllantirish usullarining o‘rinli tanlanganligi kabi omillar metodikaning umumiy samaradorligini belgilaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchining eko-resurslardan oqilona foydalanishi tadbirlar sifatida interaktiv suhbatlar va keys-stadi tashkil etish imkoniyatini beradi.

7. Interaktiv vizual ta‘lim vositalari asosida ekologik madaniyatni shakllantirishni ta‘minlovchi amaliy-texnologik yondashuvlar 8–10-sinf o‘quvchilari o‘ziga xos yosh psixologiyasidan kelib chiqib ishlab chiqilishi lozim. Bu bosqichda voqelikni vizual qabul qilish yuqori bo‘lgani sababli, raqamli ko‘rgazmali vositalar bilimlarni oson o‘zlashtirish va ularni hayotda qo‘llash imkonini beradi. Uzluksiz interaktiv muhit, testlar va vizual simulyatsiyalar orqali o‘quvchilarda ekologik ma‘lumotlar zanjirini sistemalashtirish, amaliyot bilan bog‘lash jarayoni tezlashadi.

8. Tadqiqot davomida o‘quvchilar ekologik bilim, ko‘nikma va kompetensiyasini muntazam ravishda diagnostika qilish va monitoring qilib borish pedagogik eksperimentda ayni eng muhim vazifa sifatida ko‘rildi. Bunda baholash mezonlari (bilim, amaliy faollik, munosabatlar, axborotni kritik qabul qilish) va ko‘rsatkichlar tizimi yordamida o‘quvchilarda erishilgan yutuqlar tartibli aks ettirib borildi. Olingan natijalar eko-faollik dinamikasini obyektiv baholash, metodik parametrlarni zaruratiga ko‘ra korreksiya qilish imkonini yaratdi.

9. Amaldagi eksperimental ishlanmalardan kelib chiqib, interaktiv vizual ta‘lim vositalari asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasining samaradorligi tasdiqlandi. Tajriba-sinov natijalari o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur, tabiat bilan o‘zaro munosabatda shaxsiy mas‘uliyat, ekologik qadriyatlarga sodiqlik hamda dasturiy materialni chuqur anglash darajasi an‘anaviy usullarga nisbatan sezilarli yuksalganini ko‘rsatadi. Kelgusida ushbu ilmiy xulosalar asosida keng ko‘lamli amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni respublika ta‘lim amaliyotiga joriy etish prognoz qilinadi, zero bu XXI asr ko‘nikmalarini shakllantiruvchi ustuvor pedagogik resurs sifatida barqaror rivojlanish yo‘lida muhim o‘rin tutadi.

10. Yuqori malakali ekologik tayyorgarlik tizimida, umumiy o‘rta ta‘lim maktab pedagoglari oldida tabiiy muhitni sevish va uni asrab-avaylash tarbiyasini

shakllantirish muhim vazifadir. Ekologik o'qitish jarayoni "Geografiya"dan tashqari, biologiya, kimyo, iqtisodiyot va siyosatshunoslik kabi fanlar orqali amalga oshirilishi zarur. Bu yondashuv o'quvchilarga ekosistemalar, ifloslanish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik siyosat kabi masalalarni tushunishga yordam beradi, shuningdek, ularni atrof-muhit muhofazasi masalalarida faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

11. Olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy umumlashmalardan kuzatilishicha, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ekologik madaniyat amalga oshirish jarayonining asosiy vazifasi o'quvchilarda ekologiya sohasidagi bilim, ko'nikma, ma'lumot, qadriyat va an'analarni ijtimoiy ishlab chiqarish va ko'paytirish bilan bog'liq bo'lgan ta'lim paradigmasining o'zgarishida aks etadi.

12. O'quv hamda amaliy faoliyatda pedagoglarning virtual reallik (VR) dasturlari bilan ishlash qobiliyatini tarbiyalash, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. VR texnologiyalari o'qituvchilarga o'quv materiallarini interaktiv shaklda taqdim etish, shuningdek, o'quvchilarni murakkab masalalarni hal qilish jarayonida faol ishtirok etishga undash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash va o'quvchilarda chuqur tushuncha shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqot ishi doirasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Interaktiv vizual ta'lim vositalarini fanlararo integratsiyada joriy etish va ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun o'quvchilarda tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar o'rtasidagi uyg'unlikni ko'rsatuvchi vizual kontentlardan birgalikda foydalanish zarur. Bu esa ekologik kompetentlikni shakllantiruvchi ko'nikma, munosabat va qadriyatlar rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

2. Strukturaviy- funksional model asosida metodik tizim yaratish orqali pedagogik jarayonda vizual ta'lim vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish, har bir bosqichda erishiladigan maqsadlar, didaktik materiallar hamda baholash mezonlarini aniq belgilash lozim

3. Psixodidaktik xususiyatlarni hisobga olish va 8-9-10-sinf o'quvchilari yosh psixologiyasida vizual axborotni qabul qilish hamda mustaqil tahlil qilish faol bo'ladi, shu bois interaktiv texnologiyalarni tanlashda yosh imkoniyatlari va individual qobiliyatlarga moslashtirilgan yondashuv muhim.

4. O'quvchilarda eko-hissiyotni shakllantiruvchi amaliy mashg'ulotlar orqali virtual ekskursiyalar, simulyatsiyalar va multimedia trenajyorlardan foydalanish bilan birga, haqiqiy muhitdagi kuzatuvlar, eko-treninglar va mahalliy tadbirlar ham olib borilishi lozim.

5 Metodik monitoring va baholash tizimini takomillashtirish orqali ekologik madaniyatni diagnostika qilish uchun kognitiv, axborotni qayta ishlash, munosabatlar va amaliy faollikni o'lchovchi ko'rsatkichlar ishlab chiqilishi zarur.

6. Pedagoglar malakasini oshirish, milliy ta'lim standartini boyitish va jahon tajribasidan o'rganib, interaktiv vizual ta'lim vositalarini milliy sharoitga implementatsiya qilish va interaktiv vizual vositalar bilan ishlashda pedagoglar ilg'or axborot texnologiyalarini puxta egallab, ekologik ta'lim kontentlarini yaratish yoki moslashtirishni bilishlari lozim.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
PHD.03/27.09.2024.PED.184.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

СУЛАЙМОНОВА САОДАТ УСУБХОНОВНА

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ
УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ ВИЗУАЛЬНЫХ
СРЕДСТВ ОБУЧЕНИЯ (на примере 8-10 классов)**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (педагогика)

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора педагогических наук (DSc)**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2025.3DSc/Ped1261

Диссертация выполнена в Наманганском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском (разное)) на веб-странице Научного совета (www.namspi.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz)

Научный руководитель: -

Официальные оппоненты:

Нигматов Аскар Нигматуллаевич
доктор географических наук, профессор

Наджмиддинова Хилола Ёкубжановна
доктор педагогических наук, профессор

Артикова Мухайё Ботиралиевна
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация:

Гулистанский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится «24» 12 2025 года в 13⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 при Наманганском государственном педагогическом институте. (Адрес: 160119, город Наманган, улица Уйчинская, д.316. Тел.: (998)69-211-11-69; факс: (998)69-211-11-69; e-mail: info@namspi.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного педагогического института (зарегистрирована за № 286). Адрес: 160119, город Наманган, улица Уйчинская, д.316. Тел.: (998) 69 211-11-69;

Автореферат диссертации разослан «11» 12 2025 года.
(протокол рассылки № 28 от «11» 12 2025 года)



М.Р.Кодирхонов
председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней,
д.х.н., (DSc) доцент

С.Х.Муталов
ученый секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней,
д.ф.п.н.(PhD) доцент

Х.Ё.Нажмиддинова
председатель разового Научного семинара при разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире экологические проблемы с каждым днем приобретают все более острый характер: изменение климата, дефицит водных ресурсов, управление отходами, деградация почв и другие факторы постепенно превращаются в глобальную проблему. В рамках проекта ЮНЕСКО «Образование для устойчивого развития» разработано множество программ, направленных на развитие экологической культуры и создание благоприятной образовательной среды с использованием интерактивных мультимедийных средств. Кроме того, в принятой ООН декларации «Цели устойчивого развития – 2030»²⁰, повышение качества образования, охрана природы и формирование экологической культуры в обществе определены как одни из приоритетных задач. В научно-исследовательских направлениях таких международных организаций, как ЮНЕСКО и ЮНЕП, обеспечение нравственно-этических, аксиологических и понятийных компонентов экологического образования обозначено в качестве основной цели. Традиционный учебный процесс, ориентированный преимущественно на теоретическое изложение материала, не может в полной мере обеспечить возможность для непосредственного наблюдения экологических процессов и их связи с реальными явлениями. В то время, как использование интерактивных визуальных средств обучения создает благоприятные условия для более легкого усвоения тем по экологии, а также создает широкие возможности для увлекательного их изучения и получения практических выводов.

В мире исследования в данном направлении, в том числе изучение и анализ опыта зарубежных общеобразовательных школ и научно-исследовательских учреждений, показывают, что развитие экологической культуры учащихся в системе общего среднего образования занимает важное место. В частности, в США Центр обучения и преподавания (CLT) при Гарвардском университете размещает в открытых образовательных ресурсах (Open Educational Resources) интерактивные материалы о глобальных изменениях климата, технологиях переработки отходов на специальных визуальных платформах, что создаёт удобства для школьных учителей. Помимо этого, на основе таких программ, как Eco-Schools²¹ и Green School, направлены на комплексное экологическое совершенствование школьной инфраструктуры, внедрение практических мер по охране окружающей среды и активное вовлечение учащихся в данный процесс. Разработанные такими космическими агентствами, как NASA и ESA, программы мониторинга

²⁰ BMT va uning O'zbekistondagi sheriklari "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga erishish ustida ish olib bormoqda: ular O'zbekiston va butun dunyo aholisi duch kelayotgan asosiy muammolarni hal etishga qaratilgan 17 ta o'zaro bog'liq va ulkan maqsaddan iborat.

²¹ Ekologik maktablar UNDESA – BMTning Barqaror rivojlanish uchun ta'lim o'n yilligi (2005 – 2014) tomonidan e'tirof etilgan global dastur bo'lib, o'quvchilarga o'z maktablari va jamiyatlarida barqarorlikni ta'minlashda faol ishtirok etish imkonini beradi.

Земли позволяют предоставлять точные данные в рамках воспитательных проектов, реализуемых совместно со школами, а также обеспечивают возможность наблюдения за атмосферой, водоемами и лесами в режиме реального времени²².

В Узбекистане в сфере развития экологической культуры реализуется ряд государственных программ, законодательных актов и проектов, в данном направлении особое внимание уделяется модернизации системы образования. В частности, в рамках «Стратегии развития Нового Узбекистана» реализуются масштабные реформы, направленные на охрану окружающей среды, внедрение зеленой экономики и формирование у подрастающего поколения современных экологических знаний и навыков. Министерством экологии, охраны окружающей среды и изменения климата, совместно с международными партнерами, поддерживаются такие проекты, как «Зеленое пространство» и «Центры экологической пропаганды». В некоторых школах, академических лицеях и колледжах нашей страны внедрены виртуальные лаборатории и 3D-симуляции, что предоставляет учащимся возможность в качестве эксперимента изучать экологические процессы. В результате теоретические знания по экологической тематике закрепляются на примерах из реальной жизни и постепенно превращаются в практические навыки молодежи.

Данная диссертационная работа, в определенной степени, служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан: от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»; от 29 апреля 2019 года № УП-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года»; от 30 октября 2019 года №-УП-5863 «Об утверждении Концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 года»; от 30 декабря 2021 года № УП-46 «О мерах по ускорению работ по озеленению и более эффективной организации охраны деревьев»; от 26 сентября 2024 года №-УП-149 «О мерах по обеспечению открытости и дальнейшему совершенствованию системы управления в сферах экологии и охраны окружающей среды»; от 23 ноября 2023 года №-УП-199 «О мерах по обеспечению экологической устойчивости путем дальнейшего повышения уровня озеленения в республике и последовательной реализации общенационального проекта «Яшил макон»»; в Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 16 января 2019 года №-ПП-4119 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы контроля за качеством образования»; от 30 декабря 2021 года №-ПП-76 «О мерах по охране окружающей среды и организации деятельности государственных органов в сфере экологического контроля»; в Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 27 мая 2019 года №-434 «Об утверждении Концепции по развитию экологического образования в Республике Узбекистан»; от 19 августа 2023 года №-402 «Об

²² <https://gov.uz/oz/uzspace/news/view/91090>

утверждении некоторых нормативно-правовых актов, регулирующих сферу экологического аудита»; от 24 февраля 2024 года №-101 «Об утверждении положения об общественном экологическом инспекторе», а также в других нормативно-правовых документах, относящиеся к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная исследовательская работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование и реализация системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информированного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Программы ЮНЕСКО «Образование на пути к устойчивому развитию», в частности, реализованные в системе образования исследования подчеркивают, что использование визуальных образовательных технологий обеспечивает высокую эффективность интерактивных методов в развитии у учащихся знаний и навыков, связанных с окружающей средой. Кроме того, в исследованиях, проведенных научно-исследовательскими учреждениями Программы ООН по окружающей среде (UNEP) и различными международными научными центрами, научно доказано, что использование цифровой наглядности и мультимедийных технологий в образовательном процессе занимает важное место в воспитании экологической ответственности²³. На основе мирового опыта такие научные центры экологической направленности, как Worldwatch Institute, обосновали, что использование в рамках методик обучения таких элементов, как виртуальные лаборатории и цифровые симуляции, оказывает положительное влияние на формирование экологического сознания и культуры у учащихся.

²³ <https://tll.mit.edu/>

<https://ed.stanford.edu/pols/students/all>

https://www.eeas.europa.eu/uzbekistan/yevropa-ittifoqi-va-ozbekiston_uz

<https://www.californiaeei.org/>

<https://staff.tiiame.uz/storage/users/788/articles/fmNDAYC7bNuyjby3BfN2tRoS7pkhyF2nPNgZ46HV.pdf>

<file:///C:/Users/Admin/Downloads/ekologik-ta-lim-va-tarbiyada-xorijiy-tajriba.pdf>

Witkin H.A. Socialization, culture and ecology in the development of group and sex differences in cognitive style //Human Development. -1979.-Т.22.-№.5.-P.118-122

Tolochko S. et al. Forming ecological culture in educational applicants within the context of modern education //Amazonia Investiga. – 2023. – Т. 12

Tilbury D. Environmental education for sustainability: Defining the new focus of environmental education in the 1990s //Environmental education research. -1995. -Т. 1. -№. 2. -P. 195-212

Steward J.H. The concept and method of cultural ecology //Anthropology in theory: Issues in Epistemology. -2005

Stevenson H.C. Raising safe villages: Cultural-ecological factors that influence the emotional adjustment of adolescents //Journal of Black Psychology

Shmith D., Shortt J. Pedagogy as method, ecology and home //Journal of Education and Christian Belief. -2004

Rapport D.J., Maffi L. Eco-cultural health, global health, and sustainability //Ecological Research. -2011

Potter G. Environmental education for the 21st century: Where do we go now? //The Journal of Environmental Education. -2009

Orr D.W. The nature of design: ecology, culture, and human intention. – Oxford University Press, -2002

King Y. Healing the wounds: Feminism, ecology, and nature/culture dualism //Feminism and philosophy. - Routledge, 2018

Экспериментальные исследования, проведенные научно-исследовательскими центрами при международных университетах (например, MIT Teaching and Learning Laboratory, Stanford Graduate School of Education или Институт образования King's College London), подтверждают, что с помощью интерактивных визуальных занятий у учащихся повышается интерес к проблемам окружающей среды и уровень творческого мышления, а также укрепляются компетенции, связанные с экологической культурой. В данном направлении особое внимание уделяется дидактическим возможностям использования наглядных материалов, видеороликов, интерактивных электронных ресурсов, цифровых платформ и симуляционных устройств. Такие организации Европейского союза, как European Commission и ЕЕА, а также образовательные центры США в рамках California Education and the Environment Initiative внедряют современные педагогические технологии, специализированные на экообразовании и соответствующие международной системе образования, а также разрабатывают научно-практические рекомендации по широкому применению интерактивных визуальных подходов.

